https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Fozilova O‘g‘iloy Fayoz qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
O‘zbek tili va adbabiyoti kafedrasi
o‘qituvchisi. BuxDU tayanch doktoranti.
ugiloyfozilova21@gmail.com

“AVESTO”DA NAVRO‘Z VA U BILAN BOG‘LIQ AFSONA, RIVOYATLARNING TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navro‘z bayramining qadimiy ildizlari va uning “Avesto”dagi o‘rni tahlil qilinadi. “Yasna” kitobining 1–5 boblarida bayram marosimlariga oid ibodatlar, Ahuramazdaga iltijo, tabiat kuchlarini sharaflash, ezgulik va yovuzlik kurashi, adolat hamda ruhiy poklanish g‘oyalari yoritilgan. Shuningdek, olovdan sakrash, suv bilan poklanish, yangi kiyim kiyish, sumalak tayyorlash, ehson qilish, tabiatni asrash va xalq o‘yinlari kabi urf-odatlarning Navro‘z marosimidagi o‘rni ko‘rsatilgan. “Avesto” taqvimida Navro‘z “Bahor jashi” sifatida talqin etilib, qadimgi Turonliklarning “Tura bayrami” bilan bog‘langan. Narshaxiy, Beruniy, Umar Xayyom, Mahmud Koshg‘ariy, Navoiy kabi allomalarning asarlarida Navro‘zning tarixiy va madaniy ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Navro‘z, Avesto, Yasna, Zardushtiylik, Ahuramazda, Farvardin, ezgulik va yovuzlik, poklanish, bahor jashi, Tura bayrami, qadimiy urf-odatlar, sumalak, marosimlar.

Аннотация. В статье анализируются древние корни праздника Навруз и его место в Авесте. Главы 1–5 книги «Ясна» посвящены ритуалам праздника, молитвам Ахурамазде, почитанию сил природы, борьбе добра со злом, идеям справедливости и духовного очищения. Также показана роль таких обычаев, как прыжки через огонь, очищение водой, ношение новой одежды,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

изготовление сумаляка, пожертвования, охрана природы и народные игры, в церемонии Навруза. В календаре Авесты Навруз трактуется как «Праздник весны» и ассоциируется с «Праздником Тура» древних туранцев. Историко-культурное значение Навруза широко освещено в трудах таких учёных, как Наршахи, Беруни, Омар Хайям, Махмуд Кашгари и Навои.

Ключевые слова. Навруз, Авеста, Ясна, зороастризм, Ахурамазда, Фарвардин, добро и зло, очищение, весенний праздник, праздник Тура, древние традиции, сумаляк, ритуалы.

Abstract. The article explores the ancient origins of the Navruz festival and its reflection in the sacred book *Avesta*. Chapters 1–5 of the *Yasna* section highlight the rituals of the festival, prayers to Ahura Mazda, veneration of the forces of nature, the struggle between good and evil, as well as the ideas of justice and spiritual purification. The role of traditional customs — jumping over fire, purification with water, wearing new clothes, preparing sumalak, charitable offerings, protecting nature, and folk games — is emphasized in the Navruz ceremonies. In the *Avesta* calendar, Navruz is described as the “Festival of Spring” and is associated with the “Festival of Tur” of the ancient Turanians. The historical and cultural significance of Navruz is also revealed in the works of Narshakhi, al-Biruni, Omar Khayyam, Mahmud Kashgari, and Alisher Navoi.

Keywords: Navruz, *Avesta*, *Yasna*, Zoroastrianism, Ahura Mazda, Farvardin, good and evil, purification, spring festival, Festival of Tur, ancient traditions, sumalak, rituals.

Kirish. Milliy qadriyatlarimizdan biri hisoblanmish Navro‘z bayrami haqida bugungi kunda juda ko‘plab adabiyot, tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, biroq uning qachon paydo bo‘lganligi aniq tarixiy faktlar asosida dalillab berilgan emas. Shu kungacha saqlanib qolgan mif, afsona va rivoyatlar, qo‘shiqlar tahliliga suyanib

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

aytish mumkinki, bu an’anaviy bayram qadim davrlardayoq xalqimiz hayotidan mustahkam o‘rin egallagan, o‘sha vaqtdan ulusning ulug‘ kuniga aylanib ulgurgan mo‘jizaviy kundir.

Qadimiy xalq taqvimi, quyosh yilnomasining shohona ayyomi Navro‘zning o‘z tarixi, taqdiri, u bilan bog‘liq og‘zaki ijod namunalari, xalq urf-odatlari, an’analari qatorida yozma adabiyotda yaratilgan o‘lmas asarlar ham borki, ular o‘zbek adabiyotining boy merosi tarkibini tashkil qiladi. Jumladan, qadimgi ajdodlarimiz e’tiqodicha hamda “Avesto”da bitilishicha, olamning yaratilishi Navro‘z kuniga to‘g‘ri kelgan. “Avesto”ning Farvardin Yasht va Yasna bo‘limlarida Navro‘z bayrami bilan bog‘liq marosimlar aks etgan bo‘lib, unda bugungi kun uchun ham ahamiyatli jihatlar mavjuddir.

Metodlar. “Avesto”ning Yasna kitobida Navro‘z marosimi bilan bog‘liq ibodatlar mavjud bo‘lib, ular zardushtiylarning yangi yilni kutib olishiga qaratilgan. Navro‘z zardushtiylikdagi eng muhim bayramlardan biri bo‘lib, u haqida Yashnaning 1-5-boblarda muhim tushunchalar keltirilgan: 1. Yasnaning birinchi bobi ezgulik ma’budi Ahuramazdaga iltijo va ibodat bilan boshlangan. Ular Navro‘zda o‘qilgan. Bu ibodatda zardushtiylar Ahuramazdadan barcha yaxshi va ezgu ishlarga yordam so‘raganlar. Faravashi ruhlariga ham hurmat ko‘rsatilgan va ulardan himoya qilishlari iltijo qilingan. 2. Ikkinchi bobda tabiatning barcha qudratli kuchlari, ularning hayot uchun zarur ekanligi haqida so‘z yuritiladi. Bu bobda Navro‘z marosimida Yer, Osmon va Hayotga bag‘ishlangan ibodat matnlari o‘qilishi ko‘rsatilgan. Unda Ahuramazdaga va uning barcha yaratgan mavjudotlariga, tabiiy kuchlarga hurmat ko‘rsatilgan va ularga sog‘lik, farovonlik va yuksaklik so‘ralgan. 3. Uchinchi bobda Spenta Mainyu (ezgu ruh) va Angra Mainyu (yomon ruh) o‘rtasidagi kurash talqini keltirilgan. Unda Navro‘zda ezgu kuchlarning g‘alabasi, yomonlikka qarshi kurashish va ezgulikka intilish so‘ralgan, dunyo va tabiatning tozalanishi, barcha yomonliklardan saqlanish niyat qilingan. 4. To‘rtinchi bobda Ahuramazdaning eng yuqori fazilatlari, uning adolat va yaxshilik bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi. Bu bobda Navro‘zda adolat va ezgulikka intilish,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

har bir insonning ruhini poklashga chorlash alohida o‘rin tutadi. Bu marosimda insonlar ezgu ishlarga, yaxshi niyat va amallar bilan yashashga chaqiriladi. 5. Beshinchi bobda “Avesto”da tasvirlangan ma’naviy tozalik va poklikka katta e’tibor qaratilgan. Navro‘zda marosimlar orqali o‘liklarning ruhi bilan bog‘lanib, ularni eslab, ularning ruhiga hurmat ko‘rsatiladi. Farvardinlar va ajdodlar ruhlari uchun ibodatlar amalga oshiriladi. Yangi yil bayramida qadimgi ajdodlarning ruhlari uchun, ularning rozi bo‘lishi va toza holatda bo‘lishi niyatida ibodatlar o‘qiladi.

Umuman, Yasnada Navro‘z marosimini o‘tkazish, unga aloqador ibodat matnlari alohida o‘ringa ega. Navro‘zda o‘qiladigan ibodat matnlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1. O‘liklar ruhiga ibodat: O‘liklarning ruhlarini eslab, ular uchun ibodatlar o‘qiladi. 2. Farvardinlarning himoyasini so‘rash. Farvardinlar, ya’ni ajdodlarning ruhlarini hurmat qilish va ularning himoyasini tilash. 3. Yangi yilni kutib olish. Yangi yil, yangi boshlanishlar va yangilanishlarni ifodalovchi ibodatlar.

Yasnaning 1-5-boblarida, asosan, Ahuramazda, Farvardin ruhlari, tabiat va tozalash, yomonlikka qarshi kurashish, ajdodlarning ruhlariga hurmat ko‘rsatish kabi mavzular o‘rtasida bog‘lanish mavjud. Navro‘zda o‘qiladigan ibodatlar bu fazilatlarni kuchaytirishga va yangilanish, poklanish, ruhiy yuksalish maqsadlariga xizmat qiladi.

Natijalar. “Avesto”da Navro‘z bilan bog‘liq bir qancha urf-odatlar tilga olinadi. Ular, asosan, tabiatning uyg‘onishi, yovuzlikka qarshi ezgulikning g‘alabasi va inson qalbining poklanishi bilan bog‘liq. Shuningdek, bir qancha marosimlar ham mavjud bo’lib, Navro‘z bilan uzviy bog‘liqdir. Jumladan:

1. Olovdan sakrash. Bu marosim olov poklovchi kuchga ega degan tushunchaga asoslangan. Zardushtiylik dinida olov muqaddas hisoblangan, shuning uchun odamlar olov ustidan sakrab, o‘zlarini yomonlik va kasalliklardan tozalashga ishonishgan.

2. Suv sepish va suv bilan poklanish. Suv ham muqaddas ne’mat hisoblangan va u hayot manbai deb qaralgan. Navro‘z kuni odamlar bir-biriga suv

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

sepib, yangi yilni poklik va tozalik bilan boshlash ramzi sifatida ushbu marosimni bajarganlar.

3. Yangi kiyim kiyish va uyni tozalash. Navro‘z oldidan odamlar uylarini tozalab, eski va yaroqsiz buyumlardan qutilishgan. Yangi yilni yangilangan holda qarshi olish muhim hisoblangan.

4. Sumalak va maxsus taomlar tayyorlash. Navro‘z kuni un va o‘simlik moyidan tayyorlanadigan sumalak pishirilgan. Ushbu taom farovonlik va mo‘l-ko‘llik ramzi bo‘lib, unga alohida e’tibor berilgan.

5. Xayr-ehson qilish va mehmondo‘stlik. Navro‘zda kam ta’minlanganlarga yordam berish, sadaqa ulashish va mehmon kutish muhim bo‘lgan. Bu an’ana odamlar o‘rtasidagi mehr-oqibatni mustahkamlashga xizmat qilgan.

6. Tabiat va ekin maydonlariga alohida e’tibor. Navro‘z – tabiatning uyg‘onish fasli bo‘lgani uchun, bu kunda daraxt ekish, ekin ekish va tabiatni asrash kabi ishlar amalga oshirilgan.

7. Bayram o‘yinlari va ko‘ngilochar tadbirlar. Odamlar Navro‘z kuni turli kurash, ot poygasi, raqs va qo‘shiq aytish, ko‘pkari kabi xalq o‘yinlarini o‘tkazishgan. “Avesto”da keltirilgan ushbu urf-odatlarning aksariyati hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

“Avesto” Navro‘zning tarixiy evolutsiya jarayonini hamda rivojlanish bosqichlarini o’rganadigan muhim yozma manbalardan biridir. Unga ko’ra, Navro‘z insonlarning hayotiy kuzativ mahsuli hisoblangan.[1]

“Avesto” kalendar taqvimiga ko’ra, Navro’z “Bahor jashi” (Bahor bayrami)ga to‘gri kelgan va yilning 8 oyi o‘tkinchi yil bo‘lgani uchun bahorning boshida nishonlangan. Qadimgi Sharq xalqlari “Avesto” taqvimidan foydalanishgan. “Avesto”ga ko‘ra, Navro‘z kuni Zardusht dunyoga kelgan. Zardusht Axuramazdadan (Hurmuz) “Avesto” olib kelgan kun ham Navro‘z bilan bog‘liq. Zardushtiylar bahor bayramini Axuramazdaning Axrimon ustidan qozongan g‘alabasi bilan bog‘lashgan.[2] Shuningdek, podshohlar, hukmdorlar tarix sahifalarida abadiy qolishini istab, o‘z nomlarini Navro‘z bilan bog‘lashgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Muhokama va xulosa. Qadimgi taqvimga ko‘ra, Tura oyi mart oyining o‘rtalaridan aprel oyining o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni qamrab olgan. Shuning uchun turonliklar bahor kelishini “Tura” deb atashgan.[3]

Qadimgi turk taqvimida yil ikki fasl – qish va yozdan iborat bo‘lgan, shuningdek, Tura oyining 1-kunidan mart oyining tengkunligigacha bo‘lgan davr yoz hisoblangan. Qadimgi Turonliklarning Tura bayrami bugungi kunda nishonlanadigan Navro‘z bayramining dastlabki manbasi hisoblanadi.

Yozma manbalarda Narshaxiy, Beruniy, Umar Xayyom, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Hafiz Tanish Buxoriy kabi allomalarning asarlarida, boshqa turli tarixiy, adabiy va boshqa manbalarda Navro‘zning o‘tish tartibi, u bilan bog‘liq urf-odat hamda xalq o‘yinlari haqida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Navro‘z mavzusining yozma adabiyotga ko‘chishi va ilk talqin manbalari folklor manbalaridir. Qadimiy va mumtoz yozma adabiy-badiiy asarlar ham bunga yetarli ta’sir ko‘rsatgan. Ammo Navro‘zning folklor(xalq og‘zaki ijodi)dagi va yozma adabiyotdagi talqini o‘ziga xosdir. Shuningdek, Navro‘zning yozma adabiyotning mumtoz va zamonaviy bosqichlarida talqin qilinishi ham muayyan xosliklarga ega. “Avesto”da Navro‘z haqidagi afsonalar ham o‘rin olgan. Yana Narshaxiy, Beruniy, Umar Xayyom, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Hafiz Tanish Buxoriy kabi olimu ijodkorlarning tarixiy yozma asarlarida Navro‘z to‘g‘risidagi afsonalar va rivoyatlar keltirilgan bo‘lib, ularda Navro’z va u bilan bog‘liq urf-odatlarning kelib chiqish tarixi hikoya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Авесто. – Т.: Шарқ, 2001.

2. Jo‘rayev M., O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019. – B.140.

3. Наврўз. (Наврўз билан боғлиқ қўшиқлар, афсоналар, одатлар ва иримлар). Тузувчилар: Т.Мирзаев, М.Жўраев. – Т.: Фан, 1992. – 100 б.

4. Жумахўжа Н. Наврўз ва манзур малоҳати. – “Туркистон” газетаси. – 1993. – 20 март.